ZULFIYAXONIM SHE`RLARINING TAHLILI.

Jalali Abdullah
Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi o`zbek tili va adabiyot yo`nalishi 404- kurs talabasi.
To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna
Ilmiy rahbar
o`zbek tili va adabiyot o`qituvchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7686831

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya Isroilova she`rlarining tahlili haqida ma`lumot beriladi. Shoira Zulfiya she`rlarining mavzu kalomi, obrazlar olami tahlili qilinadi.

Kalit so`z: Sadoqat, bahor, iffat, irmoq ko`ylar, ma`sum, go`zal, biyronsan, bulbul, oshkor, xiyonatkor.

Go‘zal qalb sohibasi, sadoqat kuychisi deya nom olgan shoira Zulfiyaning she’riy olami, lirikasining bosh mavzusini muhabbat tashkil etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Holbuki, shoira qo‘liga qalam olgan chog‘dan boshlab umrining so‘nggiga qadar shu pok tuyg‘uni ulug‘ladi, sadoqat, vafo, or-nomus, hayo, iffat, qo‘yingki, butun odamiylikni ishq torlarida kuyladi. Shoiraning «Tingla bulbul» she’ri ham ayni shu pafosda tug‘ilgan.

Bulbul sayrar, irmoq kuylar, o‘ynar yel,
Hamma yoqqa nur to‘lganga o‘xshaydi.
Shirin kuyga to‘lib ketdi ma’sum dil,
Sevgi unga yor bo‘lganga o‘xshaydi.
- To‘xta, bulbul, men kuylayin, jon bulbul,
Sen tinglagin qalbimdagi torimni.
Bahor desam, rashk qilmasin chaman gul,
Yuragimga kirib olgan yorimni.
Men yor sevdim, ishq o‘radi o‘yimni,
Erka dilning to‘lqiniga quloq sol.
Sen biyronsan, lekin mening kuyimni
Ko‘rki bo‘lgan sadoqatdan saboq ol…

Lirik qahramonning yuragiga muhabbat qachon kirib kelgani ma’lum emas, bu muhim ham emas. Ammo u bu pok tuyg‘uni allaqachonlar ko‘nglidan o‘tkazgani uchun ham dunyoni muhabbat ranglari ila ilg‘aydi. Sevgi unga hamma narsani ro‘y-rost oshkor etib boradi. Chunki muhabbat – bu haq, haqiqat yo‘li. Shoiraning qalb ko‘zi bu manzilda faqat ishq mubtalo etgan chin oshiqlarga duch kelgani uchun ham nima yolg‘onu nima chin, kim sadoqatli-yu kim xiyonatkorligini darrov ilg‘aydi. She’rning birinchi bandida bulbulning sayrog‘i

atrofga eshitilgan on lirik qahramon «irmoq kuylagani», «yel esgani», «hamma yoq nurga to‘lgani», «dillarga shirin kuy to‘lgani»ni qushning sevib qolganiga yo‘yadi, shu bois oshiqona sayrayotganini ta’kidlaydi. She’rning ikkinchi bandida esa u bulbulni kuylashdan to‘xtatishga urinib, ayni dam yuragida kechayotgan hislarini oshkor etadi:

«Bahor desam, rashk qilmasin chaman gul,
Yuragimga kirib olgan yorimni»

Garchand gul bulbulning sehrli ovozda kuylagan «izhori dil»idan mast uning ishqiga xayrixoh bo‘lsa-da, jonajoni, hayot baxsh etib turgan xilqat – bahorning og‘ushidadir. Shuning uchun ham uni joni qadar sevadi va hammadan qizg‘anadi. Lirik qahramon esa yoshlik, go‘zallik va poklik tarovatini taratajak bu faslga qalb qo‘rini ochgan. U ko‘nglidan mangu joy olgan.

Endi yana bulbulga qaytsak.

Ayonki, bulbul gulga oshufta qush. Unga ilhom bag‘ishlaydigan, sayrashiga asos bo‘ladigan narsa ham shu chechakdir. Ammo uning qo‘nimi yo‘q. Bir chamandan ikkinchi chamanga uchib qo‘naveradi va har sayraganda har bir gulga bag‘ishlab ishq kuyini taratadi. Deylik, umri davomida bu sayroqi qush yuzta chamanga duch kelsa, demak yuzta gulga «izhori dil» qilgan bo‘ladi. Bu esa chin muhabbatni anglatmaydi. Sevgisi haqiqiy oshiq faqat bir yorni deb umr o‘tkazadi va butun borlig‘ini, muhabbatini unga fido qiladi.

Lirik qahramon muhabbat kishisi. U muhabbat – mo‘‘jizasi bor dunyoning neligini, siru sinoatini va u kimlarga taqdir qilish-qilmasligini yaxshi biladi. Aslida sinov tariqasida hadya qilinajak bu ne’matni qadrlamaganlar oxir-oqibat beburd, lafzsiz va beobro‘ bo‘lib ko‘pchilik nazaridan qolishini doim eslatadi. Bunday xunuk ahvolga tushmaslik uchun sevgining qadriga yetish kerakligini tayinlaydi va pirovardida, har bir oshiqni o‘z yoriga vafoli bo‘lishga da’vat etadi hamda o‘z sadoqatining nechog‘lik buyukligini xitob qiladi:

«Sen biyronsan, lekin mening kuyimni
Ko‘rki bo‘lgan sadoqatdan saboq ol…»

Sadoqat chin va pok muhabbat asir etgan qalbning «uzlat»idir. Bu shak-shubhasiz ibodatdir. Ibodat lazzatini esa haqiqiy oshiq va ma’shuqlar his etadilar.

Bog`lar qitg`os gulda

Ushbu she'rda muallif bahorning gulga burkangan go'zal manzarasini tasvirlar ekan, uni ramziy ma’noda qo‘llaydi. «Bir kaft bog‘», ya’ni yaxlit bir manzil - Vatanda turlicha tarovat, turli bo‘y tarqatuvchi daraxtlar bor. Ularning har biri o‘zicha ko‘rk, o‘ziga xos meva-yu hosil beradi. Go‘yo har bir daraxt bu bir-biriga

o‘xshamaydigan millat va elatlar. Ularning har birining o‘z tarixi, o‘z urf-u odatlari, yashash tarzi bor. Lekin ular bitta bog‘da - bir maskanda, ya’ni bir Vatanda - O‘zbekistonda jam bo‘lganlar.

Bog‘lar qiyg‘os gulda - yaxlit bir chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovatda.
Bir kaft bog‘ mehnat-u hosilga vatan,
O‘zga ko‘rk,
Bahor keldi seni so`roqlab

Mazkur she'r Zulfiya o'z umr yo'ldoshining porloq xotirasiga atab yozgan asarlardandir. U bahor faslining kirib kelishi tasviri bilan boshlanadi. Odatda ko'klam kelishi quvonch-u shodlik bilan qarshi olinsa, bu bahor alam va ko'zyosh bilan kutib olinadi. Bahor esa hayron boqqancha shoiradan yori qaydaligini so'roqlaydi. Ayolning tillari bir javob aytishga ojiz bo'lganidan uni jimgina shoir qabriga boshlab boradi...

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Xuloasa: Insoniyat tarixida faqat she’r shaklida yozilgan bitiklargina so‘z san’atiga tegishli hisoblab kelingan. Garchi qadim zamonlarda ham nasrga oid asarlar yaratilgan bo‘lsada, ular nafis san’atga, badiiy adabiyotga tegishli emas, deb qaralgan. She’rning muayyan ichki tartib asosiga qurilganligi, oddiy so‘zlashuvga o‘xshamasligi, hamma ham fikru tuyg‘ularini bu shakdda ifodalay olmasligi unga qandaydir sirlilik, mumtozlik maqomini beradi. Bunday qarash butun dunyoda hukmron bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manba https://tafakkur.net/bahor-keldi-seni-soroqlab/zulfiya.uz